

BIOLOGIYANI O'QITISHDA SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNING O'RNI

Toshkent viloyat Nurafshon shahar 26-maktab biologiya fani o'qituvchisi

Sultanova Nigora Safaraliyevna

Annotatsiya: Maqlada biologiyani o'qitishda sinfdan tashqari mashg'ulotlarning o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: zamonaviy pedagogika, ta'lif-tarbiya, dars ishlanma, o'quv fani, yosh biologlar, mustaqil va mantiqiy.

Biologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan muvaffaqiyatlidir foydalanishning muhim sharti ta'lif-tarbiya jarayonida teskari aloqani amalga oshirish, ya'ni o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash, ularning javoblaridagi tipik xatoliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash, olingan natijalarga muvofiq holda dars ishlanmalariga tegishli o'zgartirishlar kiritish, ularni takomillashtirish sanaladi. Har bir dars ishlanmalarida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini ikki marta, o'tgan va yangi mavzu yuzasidan test topshiriqlari vositasida nazorat qilish va baholash nazarda tutildi. Mazkur nazorat o'quvchilarning o'quv faniga bo'lgan qiziqishlari, bilimlarini muntazam ravishda orttirish, o'quv materialini ongli o'zlashtirish va mustahkamlanishiga zamin yaratadi. O'quvchilarning fan asoslarini chuqur va mustahkam o'zlashtirishlariga erishish, qo'shimcha o'quv adabiyotlari, ko'rgazmali vositalar yordamida mustaqil ishlarini tashkil etish, belgilangan mavzular bo'yicha kuzatish va tajribalar o'tkazish, o'quvchilarning qiziqishlari va bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda tabaqlashtirilgan ta'lifni tashkil etish, ularning ijodiy qobiliyatları, mustaqil va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, kasbga yo'llash, o'qishni unumli jismoniy va aqliy mehnat bilan uzviy bog'lash maqsadida umumiyligi biologiyadan sinfdan tashkari mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning uch xil turi mavjud:

1. Ayrim o‘quvchilar bilan yakka tartibda olib boriladigan mashg‘ulotlar.
2. O‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan mashg‘ulotlar.
3. O‘quvchilar bilan ommaviy ravishda olib boriladigan mashg‘ulotlar.

Yuqorida qayd etilgan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning turlari bir-biri bilan uzviy bog‘langan, bir-birini to‘ldiradi va taqoza etadi.

Ayrim o‘quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar ularning xohish, istagi, ehtiyoji va qiziqishlari hisobga olingan holda biologiya o‘quv xonasida, tirik tabiat burchagida, maktab tajriba maydonida, informatika xonasida, jamoa va fermer xo‘jaligi dalalarida o‘tkazilishi mumkin. Ushbu mashg‘ulotlar o‘quvchilarning qo‘sishimcha o‘quv adabiyotlarini o‘rganish, EHMning ta’lim beruvchi, modellashtirilgan, nazorat dasturlari yordamida bilimlarini sinab ko‘rish, multimedialar vositasida ijodiy izlanishlarini tashkil etish, sinov — tajriba maydonlarida belgilarning irsiylanishini o‘rganish maqsadida kuzatish va tajribalar o‘tkazish, ma’ruzalar va ko‘rgazmali materiallarni tayyorlash kabilarga bag‘ishlanadi.

O‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga biologiya o‘quv xonasini jihozlash, o‘quv jarayoni uchun zarur bo‘lgan ko‘rgazmali vositalar tayyorlash va «Yosh biologlar» to‘garagini tashkil etish misol bo‘ladi.

Mazkur to‘garakning namunaviy ish rejasini o‘qituvchi o‘z bilimi, pedagogik mahoratiga tayanib to‘ldirishi va o‘zgacha sayqal berishi, mahalliy sharoit va o‘quvchilarning qiziqishi va ehtiyoji hisobiga tegishli o‘zgartirishlar kiritishi va amaliyatga qo‘llashi mumkin.

Umumiy biologiyadan o‘quvchilar bilan ommaviy ravishda olib boriladigan mashg‘ulotlarga turli mavzulardagi kechalar, bayramlar, ma’ruzalar, «O‘tkir zehnlilar mushoirasi», viktorina va mushoiralar o‘tkazish, O‘zbekiston qahramonlari va olimlari bilan uchrashuvlar tashkil etish misol bo‘ladi.

Shuningdek, «O‘zbekiston ekolog olimlarining fan taraqqiyotiga qo‘songan hissalarini», «O‘zbekistonda biotexnologiya va genetik injeneriya fani yutuqlari va kelajagi», «Allomalar nazmida ekologiya», «Orol dardi — olam dardi» mavzulari bo‘yicha ommaviy kechalar o‘tkazish tavsiya etiladi.

Biologiya o‘qituvchisi maktab pedagogik jamoasi bilan mazkur mavzuli kechalarni mazmunli o‘tkazishi borasida hamkorlikda ish olib borishi, mavzuga tegishli sahna ko‘rinishlari, adabiy-badiiy chiqishlarni tayyorlashi, ekologiyaga oid hikmatli hikoyalar, rivoyatlar, hadislar va maqollar to‘plashi, ular asosida kecha ssenariysini tayyorlashi lozim.

«O‘zbekiston ekolog olimlarining fan taraqqiyotiga qo‘sghan hissalari», «O‘zbekistonda biotexnologiya va genetik injeneriya fani yutuqlari va kelajagi» mavzulardagi mavzuli kechalarga ilmiy-tadqiqot institutlari, ularning filiallari bilan hamkorlikda ish olib borishi, fan rivojiga hissa qo‘sghan olimlarning ishlari bilan yaqindan tanishishi, kechani o‘tkazish rejasini tuzishi va ma’ruzalar mavzusini tanlashi lozim. Shu bilan birga, kecha mavzusiga bog‘liq holda olimlarning chop etgan ilmiy ishlari, o‘quv, ilmiy-ommabop adabiyotlarning ko‘rgazmasi, mustaqillik davrida qo‘lga kiritilgan yutuqlar va istiqboldagi rejalar aks ettirilgan devoriy gazetalar, kechada ishtirok etadigan olimlarning hayot faoliyati va fan rivojiga qo‘sghan hissalari haqida ma’ruzalar tayyorlanishiga e’tiborni qaratishi zarur.

Ommaviy ravishda olib boriladigan mashg‘ulotlar biologiyani o‘qitish samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi, fikr yuritish doirasini kengaytirish, qiziqishlari, mustaqilligi, nutq va muloqot madaniyati, o‘quv va amaliy mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘quvchi yoshlar ongi va qalbiga milliy istiqlol g‘oyalarini singdirish, ularni Vatan va mustaqillik prinsiplariga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, biologiya o‘qitishning samaradorligi dars, darsdan va sinfdan tashqari ishlar, ekskursiyalarni uzviy ravishda, ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni e’tiborga olgan holda tashkil etilishiga bog‘liq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘qrisida»gi Qonuni. // Barkamol avlod — O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: «Sharq» nashriyoti. 1997
2. G‘ofurov A.T. va boshqalar. Biologiya (evolyutsiya va ekologiya). Akademik litsey, kasb-hunar kollejlari uchun darslik. — T., 2003-y.
3. Tolipova J.O., G‘ofurov A.T. Biologiya ta’limi texnologiyalari. —T.: «O‘qituvchi», 2002-y.
4. Ta’lim jarayonidagi noan’anaviy shakllar (metodik tavsiyanoma). Tuzuvchilar: A.T. G‘ofurov, J.O. Tolipova, 1994-y.